Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarini tugatganlik to‘g‘risidagi diplom ma’lumotlarini tahrirlash yoki qo‘shish uchun ariza yuborish hamda oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun akademik ma’lumotnoma (transkript) olish xizmatlarini ko‘rsatish tartibi bo‘yicha qo‘shma qarorga
1-ilova

Oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini qo‘shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron xizmatini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o‘rinlarda – YIDXP) oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini qo‘shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron xizmatini (keyingi o‘rinlarda – xizmat) ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom harbiy oliy ta’lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Davlat xizmati davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari (keyingi o‘rinlarda — vakolatli organlar) tomonidan ko‘rsatiladi.

4. Davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasasi hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari diplomlarining kiritilishi va tasdiqlanishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

YIDXP – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali;

Vakolatli organ – ariza beruvchilarning so‘rovlariga ko‘ra oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini tahrirlash uchun yuborilgan arizalarni ko‘rib chiqib, ma’lumotlarni tasdiqlovchi oliy ta’lim muassasasi;

Ariza beruvchi – vakolatli organga so‘rov bilan murojaat etuvchi jismoniy shaxs;

2-bob. Xizmatni ko‘rsatish tartibi

1. Ariza beruvchi oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini qo‘shish yoki tahrirlash uchun YIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi va so‘rov yuboradi.

2. Turmush qurganligi sababli shaxsning familiyasi o‘zgarganda nikoh guvohnomasini elektron ko‘rinishda yuklashi lozim.

3. Vakolatli organ so‘rovnoma tushgan vaqtdan boshlab o‘n besh ish kuni mobaynida tegishli ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan oliy ta’lim to‘g‘risidagi diplom ma’lumotini tasdiqlab beradi.

4. Vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan ma’lumotlar YIDXPda aks ettiriladi. Ariza rad etilgan holatlarda tegishli izohlar ariza beruvchi profilida aks ettiriladi

5. Ariza beruvchi taqdim etilgan ma’lumotlar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda vakolatli organga murojaat qilishi mumkin.

6. YIDXP orqali oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini qo‘shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron xizmatidan foydalanganlik uchun to‘lov undirilmaydi.

7. Oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlari vakolatli organning idoraviy arxividan topilmagan taqdirda ariza rad etilishi uchun asos hisoblanadi.

Davlat xizmatini ko‘rsatishni boshqa asoslar bo‘yicha rad etish taqiqlanadi.

8. Oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar bo‘yicha ma’lumotlarni arxivdan olish zarurati yuzaga kelgan hollarda davlat arxivlari besh ish kuni mobaynida belgilangan tartibda arxiv hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vakolatli organga bepul taqdim etadi. Bunda ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni berish muddatiga qo‘shimcha ravishda yana besh ish kuni qo‘shiladi.

9. Oliy ta’lim olganlik haqidagi diplom ma’lumotlarini qo‘shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron davlat xizmatini ko‘rsatish jarayonlari mazkur nizomning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

10. Vakolatli organ xodimlari tomonidan ariza beruvchilar to‘g‘risidagi shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlanadi. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan rasmiy murojaat bo‘lgan taqdirda, ariza beruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etiladi.

11. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

12. Vakolatli organ axborot almashinuvi tartibiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi yuzasidan “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasini kamida 10 kun oldin xabardor qilinishini ta’minlaydi.

13. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron xizmatini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova

Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Harakatlar	Muddatlar
1-bosqich	Ariza beruvchi	Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun YIDXPdan ro'yxatdan o'tgan holda so'rovnoma yuboradi.	Xohishiga ko'ra
2-bosqich	YIDXP	Ariza beruvchi tomonidan berilgan so'rovnomani vakolatli organlarga yuboradi.	Avtomatik tarzda
3-bosqich	Vakolatli organ	So'rovga asosan oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun yuborilgan ma'lumotlarni tekshirib ularni to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi va YIDXPga elektron tarzda yuboradi.	15 ish kuni
4-bosqich	YIDXP	Vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar YIDXPda elektron ko'rinishda shakllantiriladi.	Avtomatik tarzda

Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun ariza yuborish elektron xizmatini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomga 2-ilova

Oliy ta'lim olganlik haqidagi diplom ma'lumotlarini qo'shish yoki tahrirlash uchun
SO'ROVNOMA

_____ (sanasi)

_____ (raqami)

1. Fuqaroligi	
2. Pasport (tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma, identifikatsiyalovchi ID-kartasi) ma'lumotlari (seriyasi va raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami):	
3. F.I.Sh.	
4. Tug'ilgan sanasi	
5. Jinsi	
6. Doimiy yashash manzili (viloyat, shahar/tuman, ko'cha, uy):	
7. Telefon raqami:	
8. Elektron pochta manzili (e-mail):	
9. Ta'lim darajasi.	
10. O'qishga qabul qilingan sana	
11. O'qishni tugatgan sana	
12. Ta'lim davomiyligi	
13. Oliy ta'lim muassasasi nomi:	
14. Ta'lim shakli	
15. Ta'lim yo'nalishi nomi:	
16. Yo'nalish kodi	
17. Diplom seriyasi	
18. Diplom raqami	
19. Diplom berilgan sanasi:	
20. Qayd raqami	
21. Diplom turi	